

## **MIKRO FIRMA VA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI TUGATISH**

Mikro firma va kichik tadbirkorlik subyektlarini tugatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 27 apreldagi PQ-630-son qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risida»gi hamda Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 iyuldagi 327-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘zlarining ustav jamg‘armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomlarida belgilangan tartiblar asosida amalga oshiriladi.

### **Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi**

1. Korxonani ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qaror uning muassislari (qatnashchilari) tomonidan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qabul qilinadi. Unda, tugatuvchi - tugatish komissiyasi (uning a‘zolari tarkibi) va mo‘ljallanayotgan tugatish muddati belgilanadi. Tugatuvchi tayinlangan vaqtdan boshlab korxonani ishlarini boshqarish bo‘yicha barcha vakolatlar unga o‘tadi.

2. Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarni ixtiyoriy tugatishda tugatuvchi ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingandan so‘ng keyingi ish kunidan kechiktirmasdan ro‘yxatdan o‘tkazgan organga - ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qaror nusxasini ilova qilgan holda ariza bilan murojaat qiladi.

3. Ro‘yxatdan o‘tkazgan organ korxonaning ixtiyoriy tugatilganligi to‘g‘risidagi qaror nusxasi olingandan so‘ng keyingi kundan kechiktirmay yuridik shaxslarning davlat reyestriga korxonaning ixtiyoriy tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni kiritadi hamda bu to‘g‘rida korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joydagi ichki ishlar, davlat soliq xizmati va statistika organlarini xabardor qiladi.

4. Korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joydagi ichki ishlar organi ro‘yxatdan o‘tkazgan organdan korxonaning ixtiyoriy tugatilganligi to‘g‘risidagi axborotni olgan kundan boshlab o‘n kundan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkazgan organga nomi yozilgan amaldagi muhrlar va shtamlarni tayyorlash uchun korxonaga berilgan barcha ruxsatnomalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etadi.

5. Korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organi ro‘yxatdan o‘tkazgan organning bildirishnomasi belgilangan tartibda olingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga (taftish qilishga) kirishadi, uning muddati o‘ttiz kalendar kundan oshmasligi kerak.

6. Tugatish balansi korxonaning muassislari (qatnashchilari) tomonidan

tasdiqlanib, davlat soliq xizmati organiga topshiriladi. Davlat soliq xizmati organi, korxonaning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, bir ish kuni mobaynida tugatuvchiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma beradi.

7. Davlat soliq xizmati organining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi olingandan keyin tugatuvchi korxonaning asosiy hisob raqami ochilgan bankka hisob raqamini yopish to'g'risidagi ariza-topshiriqnomaga bilan murojaat qiladi. Bank bir ish kuni mobaynida korxonaga tegishli bo'lgan hisob raqamini yopadi va tugatuvchiga asosiy hisob raqami yopilgani to'g'risida ma'lumotnoma beradi.

8. Tugatuvchi asosiy hisob raqami yopilgandan keyin uch ish kuni mobaynida davlat arxiviga korxonaning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha buxgalteriya va boshqa hujjatlarini topshiradi.

9. Tugatuvchi korxonani davlat reyestridan chiqarish uchun ro'yxatdan o'tkazgan organga, bir yoki bir necha davriy bosma nashrlarda chiqqan korxonaning ixtiyoriy tugatilganligi to'g'risidagi e'lonni, davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnomani, korxonaning barcha hisob raqamlari yopilganligi to'g'risida xizmat ko'rsatuvchi banklarning ma'lumotnomalarini, korxonaning muhr va shtamplarini, vakolatli organning, agar mavjud bo'lsa, chiqarilgan qimmatli qog'ozlarini bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotnomasini, agar mavjud bo'lsa, barcha litsenziyalar (ruxsatnomalar)ning asl nusxalarini, davlat soliq xizmati organining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomasini, korxonaga hujjatlarining davlat arxiviga topshirilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani taqdim etadi.

10. Ro'yxatdan o'tkazgan organ yuqorida ko'rsatilgan barcha hujjatlar olingandan keyin ikki ish kuni mobaynida davlat reyestriga korxonaga tugatilganligi to'g'risidagi yozuvlarni kiritadi.

11. Ro'yxatdan o'tkazgan organning qarori u qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni mobaynida tugatuvchiga beriladi yoki unga pochta orqali jo'natiladi va korxonaga tugatilgan deb hisoblanadi.

**MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI AMALGA  
OSHIRMAYOTGAN VA QONUNCHILIKDA BELGILANGAN  
MUDDATLARDA O'ZLARINING USTAV JAMG'ARMALARINI  
SHAKLLANTIRMAGAN KORXONALARNI TUGATISH  
TARTIBI**

**Tugatiladigan korxonalarni aniqlash va hisobga olish tartibi**

1. Savdo va savdo-vositachi korxonalar tomonidan uch oy mobaynida, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar - yuridik shaxslar tomonidan esa - olti oy mobaynida

bank hisob raqamlari bo'yicha pul operatsiyalarini o'tkazgan holda moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmagan hollarda tijorat banklari uch kun muddatda u hisobga qo'yilgan joydagi soliq xizmati organiga axborot taqdim etadi, axborotda quyidagilar ko'rsatiladi:

bankda hisob raqami ochilgan va oxirgi operatsiya o'tkazilgan sana;

bank hisob raqamlarida pul mablag'larining mavjudligi;

mavjud debitorlik va kreditorlik qarzlarning, kreditorlar ro'yxati ko'rsatilgan holdagi 2-kartotekaning mavjudligi;

korxonaning mansabdor shaxslari.

Bank hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risida sudning tegishli qarori taqdim etilgan taqdirda banklar keyingi ish kunidan kechikmay xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob raqamlarini yopadilar.

Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning yopilayotgan hisob raqamlaridagi mablag'lar qoldiqlari foydalanish huquqsiz tijorat banklari tomonidan maxsus hisob raqamlariga o'tkaziladi, xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov uchun bankga taqdim etilgan kreditorlik qarzi esa ko'zda tutilmagan holatlar alohida hisob raqamiga o'tkaziladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar nomiga tushgan mablag'lar ularning bankdagi hisob raqamlari yopilgandan keyin foydalanish huquqsiz maxsus hisob raqamlariga o'tkaziladi.

Foydalanish huquqsiz maxsus hisob raqamlarida jamlangan mablag'lar tijorat banklari tomonidan birinchi navbatda xo'jalik yurituvchi subyektlarning byudjetdan va byudjetdan tashqari fondlardan qarzini to'lashga, qolgan summa esa - to'lovlarning kalendar navbati bo'yicha ularning kreditorlik qarzini to'lashga yo'naltiriladi.

2. Soliq organi bank muassasasidan mazkur Nizomning 2.1-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar olingan kundan boshlab bir hafta muddatda moliya-xo'jalik faoliyatini so'nggi olti oy mobaynida amalga oshirmagan korxonalarni (bank operatsiyalarini uch oy mobaynida amalga oshirmagan savdo, savdo-vositachi korxonalarni), shu jumladan:

davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab moliya-xo'jalik faoliyatini boshlamagan;

mol-mulkka ega bo'lmagan va (yoki) mol-mulkini aniqlash mumkin bo'lmagan (bundan keyin mol-mulki bo'lmagan korxonalar deb ataladi);

muassislari (qatnashchilari)ning turar joyini aniqlash, tugatish jarayoniga mazkur shaxslarni jalb qilishni ta'minlash imkoni bo'lmagan (bundan keyin muassislari bedarak bo'lgan korxonalar deb ataladi, korxonalarni aniqlaydi.

3. Qonunchilikda belgilangan muddatda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni aniqlash ro'yxatdan o'tkazgan organ tomonidan amalga oshiriladi.

4. Soliq organlari, qonunchilikda belgilangan muddatlarda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarining aniqlanishiga ko'ra, ro'yxatdan o'tkazuvchi organga mol-mulki bo'lmagan va (yoki muassislari bedarak bo'lgan korxonalarini tugatish to'g'risida taqdimnoma yuboradi.

Qolgan korxonalar bo'yicha korxonalarini tugatish bo'yicha tegishli hududiy maxsus komissiyaga korxonalar faoliyatini bundan keyin davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida so'rovnoma yuboriladi.

5. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ maxsus komissiyaga qonunchilikda belgilangan muddatda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar faoliyatini bundan keyin davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida so'rovnoma yuboradi.

6. Maxsus komissiya korxonalar faoliyatini bundan keyin davom ettirishning maqsadga muvofiq ekanligi yoxud maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida:

soliq organiga - qonunchilikda belgilangan muddatda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmagan korxonalar bo'yicha;

ro'yxatdan o'tkazuvchi organga - qonunchilikda belgilangan muddatda o'z ustav jamg'armasini shakllantirmagan korxonalar bo'yicha bir hafta muddatda xulosa (qaror) yuborishga majburdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlariga muvofiq tashkil etilgan korxonalar bo'yicha xulosa maxsus komissiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadi.

7. Maxsus komissiya tomonidan korxonalar faoliyatini bundan keyin davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda:

moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalar bo'yicha - protokol bilan moliya-xo'jalik faoliyatini tiklash uchun muddat belgilanadi va nazorat qilib boriladi;

qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar bo'yicha - ustav jamg'armasini shakllantirish uchun muddat belgilanadi va nazorat qilib boriladi.

8. Soliq organi maxsus komissiyaning mazkur Nizomning 2.6-bandida nazarda tutilgan xulosasini (qarorini) olgan kundan boshlab uch kun muddatda korxonalarining davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlari aniqlaydi va soliqlar hamda davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlari bo'lmagan korxonalar bo'yicha - ularni tugatish to'g'risidagi taqdimnomani va maxsus komissiya xulosasini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuboradi;

davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar bo'yicha to'lanmagan qarzlari mavjud korxonalar bo'yicha - ularning soliq qarzlari undiradi yoki umidsiz soliq qarzlari mavjud korxonalarini belgilangan tartibda hisobdan

chiqarish choralari ko'radi.

Agar davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar bo'yicha to'lanmagan qarzlarning soliq xizmati organi tomonidan undirilsa, u holda soliq xizmati organi uch kun muddatda korxonani tugatish to'g'risidagi taqdimnomani va maxsus komissiya xulosasini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuboradi.

9. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan (faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar) va qonunchilikda belgilangan muddatda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan sifatida tugatiladigan korxonalar reyestrini yuritadi.

10. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar faoliyat ko'rsatmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddat mobaynida ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalar reyestriga kiritilgan korxonalar to'g'risida ular bo'yicha alohida hisob olib boruvchi tegishli statistika organlariga har oyda ma'lumotlar taqdim etadi.

Ko'rsatib o'tilgan reyestrga ustav jamg'armasini qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida shakllantirmagan aksiyadorlik jamiyati shaklidagi korxonalar to'g'risida yozuvlar kiritishda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bunday yozuvlar kiritilgan kundan boshlab bir hafta muddatda bu to'g'rida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi davlat vakolatli organini xabardor qiladi.

## **KORXONALARNI TUGATISH TARTIBI**

11. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) qonunchilikda belgilangan muddatda o'z ustav jamg'armasini shakllantirmagan korxonalar faoliyatini bundan keyin davom ettirishning maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida soliq organining taqdimnomasini yoki maxsus komissiyaning xulosasini olgan kundan boshlab bir hafta muddatda muassislarga (qatnashchilarga) asoslarini ko'rsatgan holda yozma ravishda, korxonani ixtiyoriy tugatishni taklif etadi.

Agar korxonalar ikki hafta muddatda (aksiyadorlik jamiyati - bir oy muddatda) ixtiyoriy tugatishga kirishmagan yoxud korxonalar muassislari (qatnashchilar) ixtiyoriy tugatishni amalga oshirishni rad etgan, shuningdek ko'rsatib o'tilgan shaxslarni aniqlash mumkin bo'lmagan taqdirda, ro'yxatga oluvchi organ bir hafta muddatda xo'jalik sudiga korxonani tugatish to'g'risidagi da'vo arizasini belgilangan tartibda yuboradi.

Xo'jalik sudi tomonidan korxonani tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda tugatish jarayoni uning topshirig'iga ko'ra maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

12. Korxonani tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan xo'jalik sudi bu haqda

korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazgan organga, maxsus komissiyaga, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi davlat vakolatli organiga (agar korxonaga aksiyadorlik jamiyati bo'lsa) yozma ravishda xabar berishi shart. Buning asosida:

ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning davlat reyestriga korxonaga tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritadi;

maxsus komissiya korxonani tugatishni amalga oshirishga kirishadi;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi davlat vakolatli organi Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish Yagona davlat reyestriga tegishli yozuvlarni kiritadi.

13. Xo'jalik sudining qarori kuchga kirgan vaqtdan boshlab korxonaga ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar maxsus komissiyaga o'tadi.

14. Maxsus komissiya korxonaning pul mablag'larini milliy va xorijiy valyutadagi yagona hisobvaraqlarini (tugatish hisob raqamini) jamlash bo'yicha korxonaga xizmat ko'rsatuvchi bankka topshiriq yuboradi. Korxonaga xizmat ko'rsatuvchi bank bir hafta muddatda korxonaning pul mablag'larini milliy va xorijiy valyutadagi yagona hisobvaraqlarida jamlaydi va tugatish hisob raqamidagi qoldiqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda maxsus komissiyaga taqdim etadi.

Maxsus komissiya uch kun muddatda bir yoki bir necha davriy bosma nashrlarda korxonaning tugatilishi to'g'risida e'lon berilishini tashkil etadi. Tugatish to'g'risidagi e'londa yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi, kreditorlarning talablari ko'rsatilgan arizalarni qabul qilish muddati ko'rsatiladi, bu muddat mazkur e'lon chiqarilgan vaqtdan boshlab ikki oydan kam bo'lmasligi kerak.

Maxsus komissiya:

kreditorlarni aniqlash chora-tadbirlarini ko'rishga va ularni yuridik shaxsning tugatilishi to'g'risida xabardor qilishga;

debitorlik qarzlarni undirib olishga;

korxonaning mavjud mol-mulkini xatlovdan o'tkazishga majbur.

Kreditorlar tomonidan talablar taqdim etish muddati tugagandan so'ng maxsus komissiya tugatilayotgan korxonaga mol-mulki tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, Kreditorlar tomonidan qo'yilgan talablar ro'yxati, shuningdek ularni ko'rib chiqish natijalari ko'rsatilgan oraliq tugatish balansi loyihasini tuzadi va kelishish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuboradi, unga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

korxonani tugatish jarayoni boshlanganligi to'g'risida matbuot organlarida berilgan e'lonning nusxasi;

xizmat ko'rsatuvchi bankning tugatish hisobvarag'ida mablag'larning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi va mavjud kreditorlik qarzlari bo'yicha ma'lumotlar;

Kreditorlar yozma ravishda xabardor qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar olingan vaqtdan boshlab uch kun mobaynida ro'yxatdan o'tkazuvchi organ oraliq tugatish balansi loyihasiga rozilik berganligi yoki rad etishning aniq sabablarini ko'rsatgan holda rozilik berishni rad etganligi to'g'risida yozma xabar berishi shart.

Oraliq tugatish balansi ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgandan keyin maxsus komissiya tomonidan tasdiqlanadi.

15. Tugatilayotgan korxonalar kreditolariga pul mablag'lari oraliq tugatish balansiga muvofiq, u tasdiqlangan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 56-moddasida belgilangan navbatga ko'ra maxsus komissiya tomonidan to'lanadi.

Agar tugatilayotgan korxonaning mavjud pul mablag'lari Kreditorlar talablarini qondirish uchun yetarli bo'lmasa maxsus komissiya korxonaning mol-mulkini qonunchilikda belgilangan tartibda sotadi.

Moliya xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan tugatilayotgan korxonalarning mablag'lari va mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, ularning byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha to'lanmagan qarzlari davlat soliq xizmati organlari tomonidan umidsiz soliq qarzini hisobdan chiqarish uchun belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi.

Davlat soliq inspeksiyalari hisobdan chiqarilgan umidsiz soliq qarzi summalarining hisobini yuritadi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha to'lanmagan qarzlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ygan tugatilayotgan korxonalar mansabdor shaxslariga nisbatan materiallar davlat soliq xizmati organlari va byudjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan aybdor shaxslarni qonun bilan belgilangan javobgarlikka tortish va davlatga yetkazilgan moddiy zararni qoplash uchun huquqni muhofaza qilish organlariga beriladi.

16. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugallangandan keyin maxsus komissiya kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tasdiqlovchi bank to'lov hujjatlari nusxalarini ilova qilgan holda tugatish balansi loyihasini tuzadi va kelishish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuboradi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ hujjatlar olingan vaqtdan boshlab uch kun mobaynida tugatish balansi loyihasi kelishilganligi yoxud, rad etishning aniq sabablarini ko'rsatgan holda, kelishish rad etilganligi to'g'risida yozma bildirishnoma berishi shart.

Tugatish balansi hududiy maxsus komissiya tomonidan tasdiqlanadi.

17. Yuridik shaxsning Kreditorlar talablari qondirilgandan va tugatish balansi tasdiqlangandan so'ng qolgan mol-mulki, qonunchilikda boshqacha hol nazarda

tutilmagan bo'lsa, uning ushbu mol-mulkka mulkiy huquqlarga yoki shu yuridik shaxsga nisbatan majburiy huquqqa ega bo'lgan muassislari (qatnashchilari)ga beriladi.

18. Maxsus komissiya bankdagi tugatish hisob raqamini yopadi, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani bekor qilish hamda muhrni, burchakli va boshqa shtamlarni yo'q qilish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga topshiradi.

Maxsus komissiya tomonidan korxonaning muhri, burchakli va boshqa shtamplarini, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani topish imkoni mavjud bo'lmasa, ularning bekor qilinishi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi va mazkur e'lonni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etadi.

Korxonaning tovar belgisi mavjud bo'lsa maxsus komissiya tegishli organlarga korxonaning tugatilishi munosabati bilan tovar belgisining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani bekor qilish haqida xat jo'natadi.

Maxsus komissiya tugatish ishlari tugallanganligi to'g'risidagi (qolgan mol-mulk taqsimotini hisobga olgan holda) protokolni rasmiylashtiradi va tasdiqlaydi.

19. Korxonaning tugatish hujjatlari to'liq paketi to'planganidan so'ng maxsus komissiya tugatilayotgan korxonani yuridik shaxslarning davlat reyestridan chiqarish to'g'risida quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan ro'yxatdan o'tkazuvchi organga murojaat qiladi:

soliq organining davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning mavjud emasligi to'g'risidagi xulosasi;

tugatish ishlari yakunlanganligi to'g'risidagi Maxsus komissiya protokoli;

korxonaning hujjatlarining Davlat arxiviga topshirilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma.

20. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar asosida uch kun muddatda korxonani uning tugatilishi munosabati bilan yuridik shaxslar davlat reyestridan chiqarish to'g'risida qaror qabul qiladi va yuridik shaxslar davlat reyestriga bu haqda yozib qo'yadi hamda tuman Bandlikka ko'maklashish markaziga, korxonaga xizmat ko'rsatuvchi bankka, statistika va soliq organiga xabar yuboradi, ular korxonani bir ish kuni mobaynida hisobdan chiqarishlari shart.

Yuridik shaxslar davlat reyestriga tugatish haqida yozib qo'yilgandan so'ng korxonani tugatish yakunlangan, korxonaga esa mavjud emas deb hisoblanadi.